

NUTQIY USLUBLARDA DEYKSISNINIG LINGVOHRAGMATIK XUSUSIYATLARI.

Tojimamatova Sh.M.

FarDU magistranti, shahnozatojimamatova75@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqiy uslublarda deyksisning lingvohragmatik xususiyatlari tadqiq etilgan. Unda deyksisning uslubshunoslikdagi o'rni, matn tuzilishidagi ahamiyati, badiiy matn kategoriyalarining vazifalari hamda ularning farqli jihatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: deyksis, uslubshunoslik, morfema, matn, inson, vaqt, deytik, lungvohragmatika.

KIRISH. Deyksis termini grekcha “deixix” so‘zidan olingan bo‘lib, lisoniy birliklar funksiyasi yoki ma’nosini ko‘rsatish degan ma’noni bildiradi, ular leksik va grammatik vositalar bilan ifodalanadi¹. “Deyksis termini ko‘rsatish, ishora qilish ma’nosini ifodalaydi, har qanday tilda bunday vazifani bajarishga xoslangan maxsus so‘zlar, grammatik vositalar mavjud. Demak, deyksis termin hodisa hamda birlik ma’nosida qo‘llanadi”².

ADABIYOTLAR TAHLILI VA USULLAR. Tilshunoslikda, xususan, pragmalingsvistikada deyksis masalalari bo‘yicha K.Brugman, O.Yespersen, K.yuler, V.Vinogradov, Ch.Fillmor, S.Levinson, D.Lyons va Y.Apresyan kabi yetakchi xorijiy olimlar tomonidan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbek tilshunosligida mazkur masala bo‘yicha yetakchi mutaxassislardan biri Sh.Safarov bo‘lib, uning “Pragmalingsvistika” asarida deyksis masalalari keng yoritilgan. Olimning ilmiy sa’y-harakatlari natijasida o‘zbek tilshunosligida deytika haqidagi dastlabki nazariy tushunchalar shakllangan. Shuningdek, M.Gaziyeva va M.Hakimovlarning “Pragmalingsvistika asoslari” nomli asarida ham deyksis masalalari keng tahlil qilingan.

MUHOKAMA

¹ Виноградов В.А. Дейксис// Лингвистический энциклопедический словарь.-М.:Сов. Энциклопедия,-С.128

² Хакимов М,Газиёва М Лингвопрагматика асослари Тошкент-2020,-61

Deyksis — bu nutqda aytilayotgan soʻz yoki ifodaning maʼnosi soʻzlovchi, tinglovchi, vaqt yoki joyga bogʻliq boʻlishi hodisasidir.

Oddiy qilib aytganda, deyktik soʻzlar kim gapirayapti, qachon va qayerda gapirayapti — shu holatga qarab tushuniladi.

Asosiy turlari:

1. Shaxs deyksisi — men, sen, u → Men keldim (kim — soʻzlovchiga bogʻliq)
2. Joy deyksisi — bu yerda, u yerda, shu yer → Bu yerda kutib tur (qaysi joy ekani vaziyatga bogʻliq)
3. Vaqt deyksisi — hozir, kecha, ertaga → Ertaga uchrashamiz (qaysi kun — gap aytilgan vaqtga bogʻliq)
4. Nutq deyksisi — bu gap, yuqorida aytilgani → Buni tushuntirib oʻtdim

Uslubshunoslikda deyksis til vositalarini tahlil qilish bilan bogʻliq boʻlib, joy nomlari, makon va vaqtni ifodalovchi birliklar hamda feʼl shakllari orqali nutq vaziyatiga, uning ishtirokchilari va joyiga ishora qiladi. Deyktik birliklar matnni faollashtirish va uni idrok etishga tayyorlash jarayoniga taʼsir koʻrsatadi. Bu holat, ayniqsa, badiiy va ilmiy uslublarda muhim ahamiyat kasb etib, deyksis «oʻz–begona» kategoriyalarini belgilash yoki matnni tarkibiy jihatdan tashkil etishda qoʻllanilishi mumkin.

Deyksis universal til fenomeni sifatida tilning barcha birliklarida namoyon boʻladi. Ushbu sohada aniqlangan til universalari deyksisni chuqur tadqiq etish, olingan natijalarni turli tillarga tatbiq qilish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Uslubshunoslik va grammatikada deyksis masalasi yetarlicha oʻrganilgan boʻlib, til birliklarining boshqa darajalarida, xususan, morfemalarda hamda matn doirasida tadqiq etish istiqbolli yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Morfemalarda deyksisning mavjudligi va qoʻllanilishi uning morfologik darajada amalga oshirilishini koʻrsatadi hamda bu holat tillarning morfologik tuzilishiga bevosita bogʻliq ekanligini tasdiqlaydi. Koʻplab tadqiqotlar deyksisning morfologik birliklar orqali ifodalanishini, xususan, derivatsion morfemalar yordamida matnni

shakllantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shunga qaramay, deysisning matndagi ahamiyati hanuz yetarli darajada tadqiq etilmagan. Buning asosiy sababi mazkur fenomenning ko'p qirrali xususiyatga ega ekanligidadir. Matn kichik birliklarni o'z ichiga olgani sari, ushbu birliklar bilan bog'liq deysis, uning semantikasi va funksiyalari ham kengayib boradi. Morfema, so'z va gap darajasidagi deysis matn tarkibiga kirgach, o'ziga xos yangi ahamiyat kasb etadi va faqat alohida birliklarga xos bo'lgan deysis xususiyatlar yig'indisi bilan cheklanib qolmaydi. Ayniqsa, badiiy matn ko'p qirrali tuzilishga ega bo'lgani sababli, deysis tilning yuqori darajasidagi murakkab birlik sifatida matnning turli kategoriyalari va xususiyatlariga singib ketadi hamda matn yaratilishida faol ishtirok etadi.

NATIJALAR. Ushbu tadqiqotlar asosida diskurs yoki matn deysisini besh asosiy kategoriya doirasida ajratish mumkin.

Deysis kategoriyalari iyerarxiyasi:

- 1) umumiy falsafiy (inson, fazo, vaqt);
- 2) tilga asoslangan (subyektlik, temporallik, lokallik, aniqlik–noaniqlik);
- 3) semantik-pragmatik (mazmunlilik, interpretatsiyalanuvchanlik);
- 4) arkiqlanganlik (butunlik, bo'linuvchanlik, yakunlanganlik);
- 5) Faqat badiiy matnga xos mazmunli (qahramon, xronotop, kuzatuvchi).

Umumiy falsafiy kategoriya deysisning asosini tashkil etadi va gapirish vaziyatidagi shaxs, joy hamda vaqt bilan chambarchas bog'liq. Bu kategoriya til darajasida subyektlik, lokallik kabi funksional-semantik kategoriyalar orqali ifodalanadi. Masalan, o'rinlik birliklari (bu yer – u yer, hozir – o'shanda), harakat fe'llari (kelmoq – ketmoq) va grammatik vaqt shakllari bunga misol bo'la oladi.

Tilga asoslangan kategoriya badiiy matnda aniqlik va noaniqlikni anafora hamda deysis vositasida bartaraf etadi va voqeaning reallik darajasini oshiradi. Shu bilan birga, matnning yaxlitligini ta'minlaydi.

Semantik-pragmatik kategoriyada deysis mazmunlilik, interpretatsiyalanuvchanlik va reallik bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Matn muallifi va o'quvchi o'rtasidagi fazoviy-vaqt jihatidagi farqlar matnning talqiniga

ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kuzatuvchi (muallif, qahramon yoki o'quvchi) voqeani turli masofadan idrok etadi va baholaydi.

Tarkiblanganlik kategoriyasida deytik birliklar matnning butunligi, bo'linuvchanligi va yakunlanganligini ta'minlaydi. Bu jarayonda sarlavhalar, boshlanish va fazoviy-vaqt chegaralarini belgilovchi deytik elementlar, hatto morfema darajasidagi birliklar ham ishtirok etadi.

Faqat badiiy matnga xos mazmunli kategoriyada esa deytik aniqlik o'quvchiga badiiy olamni to'liq tasavvur qilish imkonini beradi. Xronotop inson, fazo va vaqt kategoriyalarini o'zida mujassamlashtirib, matnning badiiy yaxlitligini ta'minlaydi. Kuzatuvchi kategoriyasi muallif, qahramon va o'quvchini birlashtirib, "deytik paritet"ni yuzaga keltiradi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, uslubshunoslikda deyksis badiiy matnning deyarli barcha kategoriyalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, matnning shakllanishi va idrok etilishida muhim rol o'ynaydi. U matnning fazoviy-vaqt doirasini, modalligini, realligini hamda interpretatsiya imkoniyatlarini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сребрянская Н.А. Нарративный дейксис и его корреляция с категориями художественного текста // Вестник ТГПУ. 2005. Вып. 3 (47).
 2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008.
 3. Ҳакимов М, Газиева М. Прагмалингвистика асослари. Тошкент, 2020.
- Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. Тошкент: Фан, 1990, 16-25-бетлар.